

“KELISHILGAN”

“Hamkorbank” ATB

Boshqaruv raisi

B.T.Jo‘rayev

(imzo va muhr o‘rni)

“___” may 2025 yil

“TASDIQLAYMAN”

“MY-INSURANCE” AJ ST

Bosh direktori

A.K.Yuldashev

(imzo va muhr o‘rni)

“___” may 2025 yil

Garovga qo‘yilayotgan transport vositalarini sug‘urtalash qoidalarini

1-BO‘LIM. UMUMIY SHARTLAR

1.1. Ushbu Garovga qo‘yilayotgan transport vositalarini sug‘urtalash qoidalarini (bundan keyingi matnlarda – “Sug‘urta qoidalarini” deb nomlanadi) **“MY-INSURANCE” AJ ST** (keyinchalik matnda “Sug‘urtalovchi” deb yuritiladi) tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan ishlab chiqilgan bo‘lib, “Hamkorbank” ATB (keyinchalik matnda – “Naf oluvchi” deb ataluvchi) mijozlariga Umumiy sug‘urta sohasining 3-klassi bo‘yicha Garovga qo‘yilayotgan transport vositalarini sug‘urtalash polislari doirasida sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish tartib va shartlarini belgilaydi.

Mazkur Sug‘urta qoidalarini bo‘yicha sug‘urta subyektlari bo‘lib Sug‘urtalovchi, Naf oluvchi, Sug‘urta qildiruvchi (Qarz oluvchi) hamda Garovga qo‘yuvchi hisoblanadi.

Sug‘urta qoidalarini bo‘yicha tuzilgan shartnoma/polislarning predmeti ko‘rsatilgan miqdor va muddatda sug‘urta mukofoti to‘lanishi sharti bilan ushbu Sug‘urta qoidalarida (Polisda) nazarda tutilgan shartlar va/yoki ushbu Sug‘urta qoidalarining ajralmas qismi bo‘lgan qo‘shimcha kelishilgan shartlar, istisnolar va ilovalarga muvofiq Sug‘urtalovchi sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda Sug‘urta qildiruvchi/Naf oluvchiga ushbu Sug‘urta qoidalarida ko‘rsatilgan tartibda va hajmda zararlarni qoplab berish majburiyatini oladi.

1.2. Ushbu Sug‘urta qoidalarini bo‘yicha sug‘urta obyekti bo‘lib, sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda Sug‘urta polisida ko‘rsatilgan transport vositasi hisoblanadi.

1.3. Ushbu Sug‘urta qoidalariga muvofiq sug‘urta polislari rasmilashtirish uchun Sug‘urta qildiruvchi tomonidan Ariza-so‘rovnoma ko‘rsatilgan (2-ilova) va taqdim etilgan boshqa har qanday hujjat va ma‘lumotlarlar rost va haqiqatga to‘g‘ri keladigan ma‘lumotlarga ega ekanligini, shuningdek tuzilgan shartnoma(polis)larning ajralmas qismi ekanligini tasdiqlaydi.

1.4. Sug‘urtalash qoidalarini asosida rasmilashtirilgan shartnoma(polis)lar mazkur Sug‘urtalash qoidalarining 3-ilovasi hisoblangan deklaratsiyada ko‘rsatilgan-kredit shartnomasining ta‘minoti sifatida garovga qo‘yilayotgan transport vositasi, sug‘urtalash obyekti ekanligini Sug‘urta qildiruvchi/garovga qo‘yuvchi o‘z imzolari(muhrlari) bilan, Sug‘urtalovchi esa sug‘urta polisi taqdim qilishi orqali tasdiqlaydilar.

2-BO‘LIM. TA‘RIFLAR

Quyida keltirilgan, ushbu Sug‘urta qoidalarida foydalanilgan atamalar, agar boshqacha kelishilmagan bo‘lsa, quyidagi ma‘nolarga ega:

Quyida keltirilgan, ushbu Sug'urta qoidalarida foydalanilgan atamalar, agar boshqacha kelishilmagan bo'lsa, quyidagi ma'nolarga ega:

2.1. Sug'urta polisi – Sug'urtalovchining sug'urta to'voni to'lash bo'yicha majburiyatlari kuchga kirganligini tasdiqlovchi, Sug'urta qildiruvchiga sug'urta mukofoti to'langandan keyin beriladigan hujjat.

2.2. Sug'urta puli – ushbu Sug'urta qoidalariga shartlariga ko'ra sug'urta hodisasi yuz berganida Sug'urtalovchining majburiyatlarining eng ko'p hajmlarini ifodalaydigan pul mablag'lari summasi.

2.3. Sug'urta mukofoti – sug'urta uchun to'lov bo'lib, uni Sug'urta qildiruvchi / Garovga qo'yuvchi ushbu Sug'urta qoidalarida bayon qilingan tartibda va muddatlarda Sug'urtalovchiga to'lashi shart bo'lgan summa.

2.4. Sug'urta qiymati – Sug'urta polisini rasmiylashtirish paytida taraflarning kelishuviga ko'ra aniqlanadigan, sug'urta manfaati bilan bog'lanadigan transport vositasining qiymati (FK 935m).

2.5. Sug'urta hodisasi – Sug'urta qoidalarida keltirilgan, sodir bo'lishi bilan Sug'urtalovchining sug'urta to'voni to'lovini amalga oshirish majburiyatini keltirib chiqaruvchi sug'urta voqeasi.

2.6. Sug'urta to'voni – sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchi/ Garovga qo'yuvchi / Naf oluvchining zararlarini qoplash uchun to'lanadigan pul mablag'lari miqdori.

2.7. Transport vositasi (TV) — yo'llarda odamlarni, bagajni, yuklarni yoki o'ziga o'rnatilgan uskunalarni tashish uchun mo'ljallangan qurilma, ushbu Sug'urta qoidalarining 3-ilovasida tavsiflangan garovga qo'yilayotgan transport vositasi;

2.8. Haydovchi – transport vositasini boshqarishga ruxsat etilgan toifali haydovchilik guvohnomasiga va boshqarish ruxsatnomasiga (ishonchnoma va/yoki yo'l varag'iga va/yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan boshqa hujjatlar) ega bo'lgan shaxs.

2.9. Sug'urta davri – ushbu Sug'urta qoidalariga asosan ramiylashtiriladigan sug'urta polisining amal qiladigan vaqt davri bo'lib, Sug'urta davrining boshlanishi va tugashi vaqti Sug'urta polisida ko'rsatiladi.

2.10. Geografik hudud – Sug'urta polisi amalda bo'ladigan hudud. Geografik hudud bo'lib O'zbekiston Respublikasi va undan tashqari hudud hisoblanadi.

2.11. Uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari – sug'urtalangan transport vositasi yoki uning alohida qismlarini uchinchi shaxslarning qonunga zid/huquqbuzarlik/noqonuniy harakatlari natijasida yo'qotilishi yondirilishi, sindirilishi, buzilishi, o'zlashtirilishi yoki shikastlanishi. Bu harakatlar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanishi shart.

2.12. Uchinchi shaxslar – Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi bilan shartnomaviy munosabatda bo'lmagan har qanday jismoniy yoki yuridik shaxs tushuniladi. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, uning oila a'zolari, uning xodimlari, shuningdek Sug'urta qildiruvchining nomidan ish yurituvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchinchi shaxs hisoblanmaydi

2.13. Yo'l-transport hodisasi – transport vositasining yo'ldagi qatnovi jarayonida sodir bo'lib, odamlarning o'limi yoki ularning sog'lig'iga zarar yetishiga, transport vositalari, inshootlar, yuklar shikastlanishiga yoki boshqacha tarzda moddiy zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan hodisa.

2.14. Yong'in – o't oldirish va ushlab turish uchun maxsus mo'ljallangan joylardan tashqariga ixtiyoriy ravishda tarqalish xususiyatiga ega olov.

2.15. Portlash – gaz yoki bug'larning kengayishiga asoslangan, katta miqdordagi energiyaning shiddat bilan otilib chiqishi. Rezervuar portlashi bo'lib rezervuar ichkarisida va tashqarisidagi bosim

tenglashishiga olib keladigan darajada rezervuar devorlarining yorilishi. Agar rezervuar ichida kimyoviy reaksiyaning tez kechishi natijasida portlash sodir bo'lsa, uning devorlari yorilmagan bo'lsa xam, bundan yetkazilgan zarar sug'urta bilan qoplanadi. Vakuum yoki gazlarning siyraklashishi natijasida yetkazilgan zarar sug'urta qilinmaydi.

2.16. Yashin urishi – TV mahrum bo'lishiga (nobud bo'lishiga), qisman yoki to'liq shikastlanishiga olib keluvchi, unga yashinning tegishi (yashin – bulutlar o'rtasidagi yoki bulut va yer o'rtasidagi elektr razryadi). Yashinning issiq ta'siri va yashin oqibatida havo bosimi ta'siri ham sug'urta bilan qoplanadi.

2.17. Zilzila – yer qa'rida muntazam sodir bo'ladigan, yerning ustki qismi silkinishi va tebranishi bilan kuzatiladigan tabiiy jarayonlar natijasi.

2.18. Suv toshqini – daryo, ko'l, dengiz sathining ko'tarilishi yoki damba, to'g'on buzilishi natijasida hududni sezilarli darajada suv bosishi.

2.19. Ko'chki – shamol yoki yerusti yoki yerosti suvlarning ta'sirida, qirg'oq yonbag'irlarini yuvilishi va jisnlarning og'irlik kuchi ta'sirida yoki zilzila natijasida tog' jinslarning qulashi.

2.20. Yer siljishi – dengizlar, ko'llar, daryolar jarliklar yaqinida chuqurliklarning, kanallarning tik qiyaliklari, shuningdek tog'larda o'z og'irlik kuchi ta'sirida yer massasining sokin siljishi.

2.21. Kuchli shamol – tezligi 15 m/s va undan ortiq bo'lgan shamol. Shamol tezligi O'zbekiston Respublikasi Gidrometmarkazning hududiy muassasalari ma'lumotnomalari bilan tasdiqlanadi.

2.22. Do'l urishi – do'lning bevosita ta'siri oqibatida sug'urtalangan TVni xar qanday yo'qotilishi yoki shikastlanishini anglatadi.

2.23. Jala – 12 soat yoki undan kam vaqtda 30 mm yoki undan ortiq katta miqdorda yog'ingarchilik bo'lishi bilan kuzatiladigan kuchli yomg'ir.

2.24. Qalin qor yog'ishi – bunday qor yog'ishi ushbu hudud uchun kamdan-kam (g'ayrioddiy) holat bo'lishi sharti bilan qisqa vaqt oralig'ida oddatdagidan ko'p miqdorda – 12 soat va undan kam vaqtda 20 mm va undan ko'p qor yog'ishi. Xo'jasizlik sababli sekin-asta ko'p miqdorda qor to'planishi qalin qor yog'ishidan farqlanadi.

2.25. Jismlarning urilishi – har qanday jismlarning TVga tushishi yoki zarbasi natijasida sug'urtalangan TVning nobud bo'lishi yoki shikastlanishi, oldi va/yoki eshik oynalarini shikastlanishi ham.

2.26. TVni o'g'irlanishi:

- haydab olib qochish - o'g'irlash niyatisiz, sug'urtalangan TVni qonunga xilof ravishda egallab olish.
- o'g'irlash - sug'urtalangan TVni yoki uning to'plamiga kiradigan jihozlarini, qismlarini va/yoki ehtiyot qismlarini yashirin ravishda o'g'irlash;
- talonchilik - sug'urtalangan TVni yoki uning to'plamiga kiradigan jihozlarini, qismlarini va/yoki ehtiyot qismlarini ochiqdan-ochiq talon - taroj qilish;
- bosqinchilik - sug'urtalangan TVni yoki uning to'plamiga kiradigan jihozlarini, qismlarini va/yoki ehtiyot qismlarini xayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatib yoxud shunday zo'rlik ishlatish uchun qo'rqitish yo'li bilan talon - taroj qilish maqsadida xujum qilish.

3-BO'LIM. SUG'URTA HODISASI VA TAVAKKALCHILIKLARI

3.1. Ushbu Sug'urta qoidolari bo'yicha Sug'urtalovchi, sug'urta polisida ko'rsatilgan transport vositasiga sug'urta himoyasini bilvosita quyidagi qaltisliklar natijasida sug'urta hodisasi sodir bo'lganda

taqdim etadi:

- yo‘l-transport hodisasi, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi va undan tashqarida sodir bo‘lganlar;
- yong‘in, portlash, yashin urishi;
- suv bosishi, suv toshqini, bo‘ron, dovul, kuchli shamol, yomg‘ir, do‘l, qalin qor yog‘ishi, sel, jala;
- zilzila, yer siljishi, ko‘chki, yer ag‘darilishi, yer o‘pirilishi;
- uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari.
- Jismlarning urilishi yoki qulashi.

3.2. Quyidagilar natijasida TVni o‘g‘irlanishi: transport vositasini o‘g‘irlash, haydab olib qochish, talonchilik, bosqinchilik

3.3. Maxsus qo‘shimcha shart:

Ushbu band bilan, Sug‘urta qoidalarini bo‘yicha tomonlar mustaqil qismlar, tizimlar, bog‘lovchi qismlar, moslamalarga yetkazilgan zarar, agar ular ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan o‘rnatilmagan bo‘lsa, (ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan o‘rnatilmagan bo‘lsada asliga o‘rindosh sifatida almashtirilgan va qayta jihoz deb hisoblanmaydigan ehtiyot qismlari va tizimlar hamda qayta jihoz sifatida ruxsatnomaga ega va ro‘yxatga olingan qismlar bundan mustasno) sug‘urtalangan transport vositasi to‘plamiga kiritilmagan yoki qo‘shimcha jihoz sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilmagan bo‘lsa, ushbu Sug‘urta qoidalarini (sug‘urta polisi) bo‘yicha qoplanmasligini tasdiqlaydilar va bunga rozilik bildiradilar.

4-BO‘LIM. SUG‘URTA HODISASIDAN ISTISNOLAR

4.1. Hodisalar quyidagilar tufayli kelib chiqqan bo‘lsa, sug‘urta hodisalari deb hisoblanmaydi:

- a) TV hamda uning alohida detal va uzellarini tabiiy yeyilib, eskirishi (dasturiy tizimlarning o‘z-o‘zidan tashqi ta’sirsiz buzilishi, YTHga sabab bo‘lishi bundan mustasno);
- b) ishlab chiqaruvchi zavodning ishlab chiqarishdagi nuqsoni;
- c) yo‘lning qatnov qismidagi notekisliklar yoki uning yomon holati, o‘tkir jismlarni bosib o‘tish tufayli shinalarning shikastlanishi, agar bu TVni halokati yoki shikastlanishiga olib kelmasa;
- d) sug‘urta qildiruvchining sug‘urtalangan TVni o‘zgartirishi va/yoki mukammallashtirishi bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlari;
- e) sug‘urta qildiruvchi yoki uning haydovchisi tomonidan o‘zining ixtiyorida bo‘lgan sug‘urtalangan TVda sug‘urta hodisasi kelib chiqishiga qaratilgan qasddan sodir etilgan harakatlari (sug‘urta qildiruvchining fuqarolik burchini bajarishi bilan bog‘liq bo‘lgan yoki sug‘urta qildiruvchi va/yoki uning haydovchisi yoki uchinchi shaxslarning hayoti, sog‘lig‘i, or - nomusi va qadr - qimmatini himoya qilishga qaratilgan harakatlari bundan mustasno);
- f) sug‘urtalangan TV ichida bo‘lgan hamda unga ortilayotgan yoki undan tushiralayotgan mulkka yetkazilgan har qanday zarar, bunda transport vositasiga yetkazilgan zarar sug‘urta hodisasi hisoblanadi;
- g) transport vositasini boshqarishga ruxsat etilgan toifali haydovchilik guvohnomasiga va boshqarish ruxsatnomasiga (ishonchnoma va/yoki yo‘l varag‘iga O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko‘zda tutilgan boshqa hujjatlar) ega bo‘lmagan shaxs tomonidan boshqarilishi. Ushbu banddagi qoidalar sug‘urtalangan TV o‘zlashtirilgan holatlarda qo‘llanilmaydi.;
- h) transport vositasini alkogolli ichimlikdan mastlik holatida yoki giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar ta’siri ostida boshqarilayotganda yetkazilgan zararlar;

- i) temir yo'lni kesib o'tish qoidalarini buzish, svetoforming taqiqlovchi qizil chirog'ida o'tishi, Bu holatlarda Sug'urtalovchi sug'urta qoplamasini to'lamaslik yoki qisman to'lashga haqlidir;
- j) harbiy bostirib kirish harakatlari; harbiy harakatlar (urush e'lon qilingan yoki qilinmaganligidan qatiq nazar), fuqarolik urushlari;
- k) shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan sodir etilgan terrorchilik harakatlari;
- l) har qanday yadro yoqilg'isi yoki xar qanday radiaktiv moddalarning tashqariga chiqishi yoki yadroviy yoqilg'ini yonishidan kelib chiqqan ionlashtiruvchi radiatsiya yoki radiaktiv ifloslanish;
- m) reaktor yoki boshqa yadroviy tarkibiy qismga ega bo'lgan har qanday obyektlarning radiaktiv, toksik, portlovchi va boshqa xavfli yoki ifloslantiruvchi xususiyatlari;
- n) radiaktiv nurlanish va/yoki radiaktiv kuch yoki modda asosida ta'sir etuvchi har qanday urush qurollari

4.2. Sug'urta hodisasi tufayli sug'urta qildiruvchining kelib chiqishi mumkin bo'lgan bilvosita va boshqa xarajatlariga (jarima, ijarada bo'lgan TV uchun ijara xaqi, ta'mirlash vaqtida mehmonxonada turishi, xizmat safari xaqlari, daromadning yo'qotilishi, bekor turib qolish, kafolatlangan muddatning o'tishi bilan bog'liq bo'lgan moddiy zararlar, ma'naviy zarar) nisbatan sug'urtalovchi majburiyatini bajarmaydi

4.3. Shartnoma bo'yicha sug'urta tovonini talab qilish huquqi quydagi holatlarda qanoatlantirilmaydi:

- a) agar zararni qoplash talabi aldash maqsadida amalga oshirilsa;
- b) talabni amalga oshirish uchun bila turib qalbaki ma'lumotlar taqdim etilsa;

5-BO'LIM. SUG'URTA PULI, SUG'URTA MUKOFOTI

5.1. Har bir tuzilgan sug'urta shartnomasi/polisi bo'yicha sug'urta summasi va sug'urta mukofoti miqdori, ushbu Sug'urta qoidalarining 4 - ilovasida ko'rsatilgan sug'urta polisi namunasiga asosan ramiylashtirilgan sug'urta polisida ko'rsatiladi, shartnomalar bo'yicha sug'urta mukofoti Sug'urta qoidalarining 1-ilovasidagi tarif asosida hisoblanadi.

5.2. Ushbu Sug'urta qoidalari asosida tuzilgan shartnomalar/polislar bo'yicha barcha o'zaro hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi "so'm"da amalga oshiriladi.

6-BO'LIM. SUG'URTA SHARTNOMALARNI TUZISH TARTIBI VA AMALDA BO'LISH MUDDATI

6.1. Mazkur Sug'urta qoidalariga asosan sug'urtalovchi va naf oluvchi o'rtasida Bosh kelishuv tuziladi va har bir sug'urta qildiruvchiga elektron sug'urta Polis berish va Sug'urta qoidalarga qo'shilish yo'li bilan shartnomalar tuziladi.

Elektron sug'urta polisi (Sug'urta qoidalarining 4-ilovasi) amaldagi sug'urta faoliyati qonunchiligi talablari doirasida rasmiylashtiriladi hamda sug'urta mukofoti / uning birinchi navbatdagi badali Sug'urtalovchining bank hisob raqamiga kelib tushgandan keyin zudlik bilan onlayn rejimda Sug'urta qildiruvchiga/Qarz oluvchiga taqdim etiladi. Agar sug'urta hodisasi to'lash muddati o'tkazib yuborilgan navbatdagi sug'urta mukofoti to'lanishidan oldin yuz bergan bo'lsa, sug'urtalovchi sug'urta shartnomasi bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta tovonni miqdorini sug'urta mukofotining o'ziga to'langan qismiga mutanosib summada cheklashga va muddati o'tkazib yuborilgan sug'urta mukofoti summasini hisobga olishga haqli.

6.2. Sugʻurta mukofoti yoki uning birinchi qismi oʻz vaqtidan keyin toʻlangan taqdirda ushbu Sugʻurta qoidalarini boʻyicha tuzilgan shartnomalarda kelishilgan sugʻurta mukofoti yoki uning qismi toʻlangan paytdan boshlab kuchga kiradi va ushbu Sugʻurta qoidalarining 4-ilovasida asosan ramiylashtirilgan sugʻurta polisida aks etgan muddat mobaynida amalda boʻladi. Sugʻurtalovchining majburiyatlari boshlanishi Sugʻurta mukofoti yoki uning qismi toʻlangan payt boʻlib, Sugʻurtalovchi yoki uning Sugʻurta agentining bank hisob raqamiga pul mablagʻlari kelib tushgan kun hisoblanadi.

6.3. Ushbu Sugʻurta qoidalarini bilan shartlashilgan Sugʻurta shartnomalari/polislari kuchga kirgandan keyin sodir boʻlgan sugʻurta hodisalariga nisbatan qoʻllaniladi va sugʻurta polisida koʻrsatilgan sugʻurta muddati mobaynida amalda boʻladi.

6.4. Agar Sugʻurta qildiruvchi Naf oluvchi oldidagi majburiyatlarini toʻliq hajmda bajarsa, sugʻurta muddati tugagunga qadar Sugʻurta qildiruvchi Naf oluvchi boʻlib hisoblanadi.

7-BOʻLIM. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

Ushbu Sugʻurta qoidalarini amalda boʻlgan muddatda:

7.1. Sugʻurta qildiruvchi/Naf oluvchining huquqlari:

- a) Tomonlarning kelishuvi bilan ushbu Sugʻurta qoidalariga oʻzgartirishlar kiritishi;
- b) Soʻroviga koʻra Sugʻurtalovchidan ushbu Sugʻurta qoidalarini boʻyicha maslahatlar olishi;
- c) Sugʻurtalovchining sugʻurta toʻvoni toʻlovini rad etish javobi ustidan sudga arz qilishi.
- d) Mulk huquqini begonalashtirmagan holda qonunchilikda ruxsat etilgan har qanday tartibda transport vositasini ijaraga (vaqtincha foydalanishga) berishi;
- e) Naf oluvchi sugʻurta muddati davrida sugʻurta hodisasi sodir boʻlganda sugʻurta hodisasi toʻgʻrisida xabar topgan sugʻurta davrining har qanday vaqtida sugʻurtalovchiga murojaat qilishga haqli

7.2. Sugʻurta qildiruvchi/Naf oluvchining majburiyatlari:

- a) sugʻurta mukofotini shartnomada belgilangan tartib va muddatlarida toʻlash;
- b) TVni texnik soz holatda saqlash va ishlatish;
- c) sugʻurta shartnomasi amal qilgan davrda sugʻurta shartnomasi tuzilayotganda sugʻurtalovchiga maʼlum qilingan holatlarda sugʻurta qaltisligini oshishiga jiddiy taʼsir etishi mumkin boʻlgan oʻzgarishlar paydo boʻlganligi maʼlum boʻlsa, bu haqida zudlik bilan sugʻurtalovchini xabardor qilish. Jiddiy deb quyidagi oʻzgarishlar tan olinadi: kuzov yoki dvigatelni almashtirish, sugʻurta obyektini nobud boʻlishi yoki TVning amaldagi qonunchilikka asosan egasi oʻzgarishi, TVni roʻyxatdan chiqarish), Lekin mulk egasi oʻzgarmagan holda davlat raqam belgisi oʻzgarganda yoki qonunchilikda ruxsat etilgan har qanday qayta jihozlash natijasida yoki boshqa sabablarga koʻra TVnig texnik pasporti oʻzgargan taqdirda ham ushbu shartnoma va sugʻurta polisi oʻz kuchida qoladi;
- d) sugʻurta hodisasi roʻy berganda koʻrilishi mumkin boʻlgan zararni bartaraf etish yoki kamaytirish maqsadida oqilona va mumkin boʻlgan choralarni koʻrish. Bunday choralarni koʻrishda sugʻurta qildiruvchi sugʻurtalovchining koʻrsatmalariga rioya qilishi kerak, agarda bunday koʻrsatmalar unga berilgan boʻlsa;
- e) TVni koʻzdan kechirish kuni, joyi va vaqtini sugʻurtalovchi bilan kelishish. Agarda sugʻurta shartnomasida boshqacha tartib kelishilmagan boʻlsa, sugʻurta hodisasi sababli TV olgan shikastlarida uning ekspluatatsiyasi taʼqiqlansa va/yoki texnik jihatdan imkoni boʻlmasa, TVni

ko'zdan kechirish joyini sug'urta qildiruvchi belgilaydi;

- f) TVni ko'zdan kechirishda qatnashish;
- g) sug'urta hodisasi ro'y bergan taqdirda, mazkur sug'urta qoidalariga asosan, sug'urtalovchini xabardor qilish;
- h) sug'urta hodisasi ro'y berishi bilan zudlik bilan sug'urtalovchiga mazkur sug'urta qoidalarida ko'rsatilgan muddat ichida sug'urta to'lash haqidagi talabni ko'rib chiqish uchun barcha hujjatlarni taqdim etish;

7.3. Sug'urtalovchining huquqlari:

- a) sug'urta qildiruvchidan sug'urta hodisasi va uning sabalari bo'yicha unda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni va hujjatlarni talab qilish;
- b) sug'urta shartnomasi amaldagi vaqtda TVsi to'g'risida berilgan ma'lumotlarni va uning holatini tekshirish;
- c) sug'urta hodisasi bo'yicha mustaqil tekshirish o'tkazish, shu jumladan vakolatli organlardan axborotni olish uchun so'rovnomalar yuborish;
- d) sug'urta qaltisligini oshishiga olib keladigan holatlar ma'lum qilinganda sug'urta shartnomasidagi shartlarni o'zgartirishni yoki qo'shimcha sug'urta mukofotini to'lashni talab qilish. Agar sug'urta qildiruvchi sug'urta shartnomasining shartlarini o'zgartirilishiga yoki qo'shimcha sug'urta mukofotini to'lashga e'tiroz bildirsa, sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan tartibda sug'urta shartnomasini bekor qilinishini talab qilishga haqli.

7.4. Sug'urtalovchining majburiyatlari:

- a) sug'urta qildiruvchini sug'urta shartlari bilan tanishtirish va sug'urta hodisasi sodir bo'lganda mazkur sug'urta qoidalarida ko'zda tutilgan muddat va tartibda sug'urta qildiruvchiga (naf oluvchiga) sug'urta to'vonini to'lash;
- b) o'zining professional ish faoliyati natijasida sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) va ularning mulkiy va moliyaviy ahvoli haqidagi olgan ma'lumotlarini oshkor etmaslik;
- c) shartnomaning amal qilish davrida sug'urta qildiruvchiga sug'urta masalalari bo'yicha maslahatlar berish.

8-BO'LIM. SUG'URTA DA'VOSINI KO'RIB CHIQISH

8.1. Sug'urtalovchiga sug'urta to'lash talabini ko'yishga asos bo'ladigan har qanday zarar yoki shikastlanish sodir bo'lganda, Sug'urta qildiruvchi, Garovga qo'yuvchi, (Naf oluvchi) quyidagilarni bajarishi kerak:

8.1.1. zudlik bilan sodir bo'lgan hodisa to'g'risida vakolatli organlarga (YHXBB, IIB, Favqulotda Vaziyatlar Vazirligi va h.k.) xabar berish va tegishli dalolatnoma yoki ma'muriy bayonnoma tuzish lozim. O'ziga bog'liq bo'lmagan hollar bundan mustasno;

Eslatma: Yo'l Harakati Xavfsizligi organlariga murojaat etishni iloji bo'lmasa, hodisa qatnashchilari yoki guvohlaridan ularning F.I.O. va yashash manzili ko'rsatilgan holda yozma ravishda axborot olishga yo'l qo'yiladi.

8.1.2. bu hodisa xaqida sug'urta qildiruvchi 15 kun ichida (naf oluvchi o'ziga ma'lum bo'lgan muddatdan boshlab 15 kun ichida ichida) Sug'urtalovchini xabardor qilishi va 30 (o'ttiz) kun ichida zarar keltirilgan holat va sabablar ko'rsatilgan yozma arizani Sug'urtalovchiga yo'llashi;

8.1.3. Sug'urtalovchiga sug'urta to'voni to'lash talabini qo'yishda Sug'urta qildiruvchi 60 (oltmish) kun ichida Sug'urta polisi bilan quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

8.1.3.1. TVga zarar yetkazilganda, yoki nobud bo'lganda:

a) sug'urta hodisasiga taaluqli bo'lgan vakolatli davlat organlari tomonidan berilgan xulosa va ma'lumotlar, aynan:

- Yo'l Harakati Xavfsizligi organlaridan yo'l transport hodisasiga tegishli chizma, bayonnoma, qaror yoki boshqa hujjatlar (yevroprotokol);

- Sud organlaridan tegishli qarorlar (agar mavjud bo'lsa);

- Yong'in xavfsizligi boshqarmasi organlaridan yong'inga taaluqli bayonnoma, ekspertiza, xulosa (agar mavjud bo'lsa);

- O'zbekiston Respublikasi Hidrometeorologiya xizmati agentligi organlaridan shu hududda tabiiy ofatlar harakatini tasdiqlovchi ma'lumotnoma (agar mavjud bo'lsa);

b) mastlik holatini aniqlash bo'yicha tibbiy tekshiruv o'tkazilganligi to'g'risidagi bayonnoma/ma'lumotnomaning nusxasi;

c) TVning texnik pasporti yoki ro'yxatga olinganligi to'g'risida ma'lumotnoma nusxasi;

d) haydovchilik guvohnomaning nusxasi;

e) TVni boshqarishni tasdiqlovchi hujjat (yo'l varaqasi, ishonchnoma yoki ijara shartnomaning nusxasi);

f) Sug'urtalovchiga ko'rib o'rganib chiqish uchun shikastlangan TVning tiklashdan oldin uzini taqdim etish yoki uning shikastlangan qismlarining foto, video tasvirlarini taqdim etish (agar mavjud bo'lsa);

g) litsenziyaga ega bo'lgan yoki davlat baholash tashkiloti tomonidan tuzilgan zarar to'g'risidagi hisobotini taqdim etish.

8.1.3.2. TV va uning agregatlari, qismlari o'g'irlanganda, yoki Shartnomaning 3.2. bandida ko'rsatilgan hodisalar natijasida nobud bo'lganda;

a) Ichki Ishlar tergov organlaridan tegishli ma'lumotnomaning nusxasi;

b) TVning texnik pasporti yoki ro'yxatga olinganligi to'g'risida ma'lumotnoma nusxasi (agar sug'urtalangan TVsidan o'g'irlangan bo'lmasa);

c) haydovchilik guvohnomasining nusxasi (agar sug'urtalangan TVsidan o'g'irlangan bo'lmasa);

d) TVni qonuniy boshqarishni tasdiqlovchi hujjat yo'l varaqasi, ishonchnoma yoki ijara shartnomaning nusxasi.

Sug'urta tovonini talab etish arizasida quydagilar belgilanishi shart: TVning haydovchisini familiyasi, ismi, otasining ismi; sug'urta voqeasi sodir bo'lgan sana vaqt va aniq joyi; sug'urta voqeasi natijasida shikastlangan TVning tavsiloti (rusumi, davlat belgisi, dvigatel va kuzov belgi raqamlari), tashqi ko'rinishdagi TVning shikastlangan joylari va zaraning tavsifi; YTHning boshqa qatnashchilarining familiyasi, ismi va yashash joylari (agar Shartnomaning 3.1. bandidagi hodisa sodir bo'lsa); YTHsida aybdor bo'lgan shaxsning familiyasi, ismi va yashash joylari (agar Shartnomaning 3.1. bandidagi hodisa sodir bo'lsa); hodisa bo'yicha jinoiy ish qo'zg'atilgani yoki qo'zg'atilmagani to'g'risida axborot (agar Shartnomaning 3.2. bandidagi hodisa sodir bo'lsa);

8.2. Hodisa bo'yicha barcha tegishli hujjatlar taqdim etilganidan so'ng Sug'urtalovchi sodir bo'lgan voqeani sug'urta hodisasi deb tan olish yoki tan olmaslik haqida qaror qabul qiladi:

8.2.1. Sug'urta voqeasining tavsifi va tavsilotlaridan kelib chiqib, Sug'urtalovchi ushbu

Shartnomaning 8-bo'limida ko'rsatilgan hujjatlarning hammasini ham talab qilmasdan sodir bo'lgan voqeyani tan olish yoki tan olmaslik (sug'urta to'lovni to'lovini rad etish) to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin

9-BO'LIM. SUG'URTA TOVONI TO'LOVI

9.1. Sug'urta to'voni eskirish hisobi bilan haqiqiy zarar miqdorida, lekin sug'urta pulidan oshmagan holda to'lanadi.

9.2. Sug'urta to'voni quydagicha to'lanadi:

9.2.1. TVning to'la nobut bo'lishi yoki o'g'irlanishida:

a) sug'urta puli miqdorida Shartnomaning 6.3 bandini hisobga olgan holda;

9.2.2. TVsiga shikast yetganda:

a) texnik xizmat ko'rsatish ustaxonasining (STO) tiklash ta'mir uchun tuzilgan naryad – zakaz / kalkulyatsiya asosida eskirish va Shartnomaning 6.3. bandini hisobga olgan holda.;

b) Baholashga litsenziyasi bor maxsus tashkilotning kalkulyatsiyasi asosida Shartnomaning 9.3.-9.4. bandlarini hisobga olgan holda. Kalkulyatsiya shu hududda amalda bo'lgan ta'mir ishlarning va avtomobil qismlarning o'rta bozor narxlar asosida eskirishni hisobga olgan holda tuziladi. Baholashga ketgan xarajatlarni Sug'urta qildiruvchi qoplaydi.

9.3. Agar mazkur shartnoma tuzilish kuniga sug'urta puli TVning sug'urta qiymatidan kamroq bo'lsa, unda sug'urta to'voni mutanosib ravishda to'lanadi. Agar sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan TVning sug'urta puli sug'urta qiymatidan ortiq bo'lsa, shartnoma sug'urta pulining sug'urta qiymatidan ortiq bo'lgan qismida o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmaydi. O'R FKning 935 bandiga asosan sug'urta puli sug'urta qiymatiga mutanosibligi Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta hodisasi sodir bo'lganda aniqlanishi mumkin. Polisdagi sug'urta qiymati yoki sug'urta puli ko'rsatilmagan bo'lsa, Ular bir xil qiymatga ega deb hisoblanadi.

9.4. Agar zarar uchinchi shaxslar tomonidan Sug'urta qildiruvchiga qisman qoplangan bo'lsa, bu holda Sug'urtalovchi qoplangan summani hisobga olgan holda sug'urta to'vonni to'lanadi.

9.5. Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchiga to'langan har bir to'lov mazkur shartnomaning tegishli sug'urta pulini kamaytiradi, agar Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta pulini tiklash uchun qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lanmasa, Naf oluvchi sug'urta pulini tiklash uchun sug'urta qildiruvchiga qo'shimcha sug'urta mukofotini to'lashni talab qilishi mumkin. Agarsug'urta hodisasi natijasida Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchiga to'lab berilgan sug'urta to'lovni yoki uning ma'lum qismi doirasida sug'urta mukofoti to'langan taqdirda polisga kelishuvlar tuzilmaydi. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi sug'urta mukofoti to'langanligi to'g'risida Sug'urtalovchini xabardor qiladi. Qo'shimcha sug'urta mukofoti to'langanida Sug'urtalovchining majburiyati to'langan qo'shimcha sug'urta mukofotiga mutanosib ravishda tiklangan hisoblanadi.

9.6. Hodisaning sabablari va holatlarini ko'rsatuvchi hamda zararning miqdorini aniqlovchi hujjatlarni olgandan so'ng Sug'urtalovchi sug'urta hodisasini tan olish haqida 15 (o'n besh) bank ish kun ichida qaror chiqaradi. Sug'urtalovchi sug'urta hodisasini tan olsa, sug'urta to'vonini miqdorini belgilaydi va tegishli sug'urta hodisasi to'g'risidagi Bayonnomani Sug'urta qildiruvchiga taqdim etadi. Sug'urta hodisasi to'g'risidagi Bayonnomaga barcha tomonlar qo'l qo'ygandan so'ng 10 (o'n) bank ish kuni ichida Sug'urtalovchi sug'urta to'vonini Naf oluvchiga yoki uning yozma ko'rsatmasiga binoan Sug'urta qildiruvchiga (Garovga qo'yuvchiga, agar mulk Sug'urta qildiruvchiniki bo'lmasa) to'laydi.

9.7. Sug'urtalovchining sug'urta to'vonini yoki sug'urta pulini to'lashni rad etish to'g'risidagi qarori

sug'urta qildiruvchiga (naf oluvchiga) ular sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lashni so'rab murojaat etganlaridan keyin 15 (o'n besh) kundan kechiktirmay xabar qilinishi va rad etish sabablarining asoslantirilgan dalil-isbotlarini o'z ichiga olgan bo'lishi lozim.

10-BO'LIM. SUG'URTA SHARTNOMA(POLIS)LARNI BEKOR QILINISHI VA TUGATILISHI

10.1. Mazkur Sug'urta qoidalarida asosida tuzilgan shartnoma(polis)lar taraflarning kelishuviga ko'ra istalgan vaqtda bekor qilinishi/Shartnoma(polis)dan voz kechilishi mumkin.

10.2. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, agar voz kechish paytiga kelib sug'urta hodisaning yuz berish ehtimoli Sug'urta qoidalarida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha yo'qolmagan bo'lsa, mazkur Shartnomani bajarishdan istagan paytida voz kechishga haqli. Bu holatda, Sug'urtalovchiga sug'urta mukofotining bir qismi sug'urta amal qilgan vaqtga mutanosib ravishda, qaytarib berilayotgan ishlab topilmagan sug'urta mukofotining 25% miqdorida xarajatlarini chegirib qolgan holda, qaytarib beriladi.

10.3. Mazkur Sug'urta qoidalarining 10.1., 10.2. bandlarida ko'rsatilgan holatlarda Shartnoma bekor qilinganda, agar sug'urta hodisalari bo'yicha zararni qoplash to'g'risida talabnoma taqdim qilingan, Sug'urtalovchi tomonidan ular qoplanishi lozim bo'lgan va/yoki har qanday sug'urta tovonini to'langan bo'lsa, sug'urta mukofoti qaytarib berilmaydi.

10.4. Mazkur Sug'urta qoidalarida bilan tuzilgan shartnoma/polis quyidagi holatlarda bekor bo'ladi:

- a) amal qilish muddati tugaganda;
- b) Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi/Garovga qo'yuvchi oldida Sug'urtalovchining Shartnoma/Polis bo'yicha majburiyatlari to'liq bajarib bo'linganda;
- d) Shartnoma/Polis sud tomonidan haqiqiy emas deb topilganda.

11-BO'LIM. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

11.1. Tomonlar o'z zimmlariga qabul qilgan majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

11.2. Sug'urta qildiruvchiga tegishli sug'urta tovonini kechiktirganligi uchun Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan mablag'ning 0,1% miqdorida, lekin ushbu Sug'urta qoidalarida bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan mablag'ning 10% idan oshmagan miqdorda penya to'laydi. Penya to'lanishi Sug'urtalovchini sug'urta tovonini to'lovidan ozod qilmaydi.

11.3. Agar Tomonlar ushbu Sug'urta qoidalarida bo'yicha o'z majburiyatlarini bajara olmasliklari yengib bo'lmas kuch (fors-major) shart-sharoiti sababli yuzaga kelsa, ular javobgarlikdan ozod bo'ladilar. Yengib bo'lmas kuch ta'sirida bo'lgan tomon boshqa tomonni bunday shart-sharoit yuzaga kelganligi va tahminan qancha davom etishi mumkinligi to'g'risida bir-birlarini darhol xabardor qilishlari shart.

Bunda Tomonlar ushbu Sug'urta qoidalarining bajarilgan va bajarilmagan qismlari yuzasidan o'rnatilgan tartibda yakuniy hisob-kitobni amalga oshiradilar.

12-BO'LIM. SUBROGATSIYA

12.1. Sug'urta tovonini to'langandan keyin (to'langan miqdor chegarasida) Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi zararni yetkazilganligiga javobgar bo'lgan shaxslarga nisbatan bo'lgan zarar o'rnini qoplashni talab qilish huquqi Sug'urtalovchiga o'tadi. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi Sug'urtalovchiga sug'urta hodisasi uchun javobgar shaxsdan talab qilish uchun zarur barcha hujjatlarni

beradi.

13-BO‘LIM. BAHSLARNI HAL ETISH TARTIBI

13.1. Ushbu Sug‘urta qoidalarida keltirilgan masalalar yuzasidan bahslar, talablar yoki kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda tomonlar ularni muzokaralar yo‘li bilan hal etish choralarini ko‘radilar.

13.2. Ushbu Sug‘urta qoidalaridan kelib chiqqan bahslar, kelishmovchiliklar yoki talablar, shu jumladan uning ijrosi, buzilishi, tugatilishi yoki haqiqiy emasligi muzokaralar yo‘li bilan hal etib bo‘lmasa, ular O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

14-BO‘LIM. BOSHQA SHARTLAR

14.1. Ushbu Sug‘urta qoidalariga barcha qo‘shimchalar va o‘zgarishlar, shuningdek uni uzaytirish yoki tugatilishi tomonlarning roziligi bilan yozma shaklda amalga oshiriladi.

14.2. Sug‘urtalangan transport vositasiga bo‘lgan huquqlar boshqa shaxsga o‘tgan taqdirda ushbu Sug‘urta qoidalarini bo‘yicha Sug‘urta qildiruvchining huquq va majburiyatlari transport vositasiga bo‘lgan huquqlar o‘tgan mas‘ul shaxsga o‘tadi.

14.3. Ushbu Sug‘urta qoidalarida tartibga solinmagan o‘zaro munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.

SUG‘URTALOVCHINING YURIDIK MANZILI VA REKVIZITLARI:

“MY-INSURANCE” AJ ST

Elektron pochta manzili: info@myinsurance.uz

Manzil: Toshkent sh., Mirobod tumani, kichik Mirobod ko‘chasi, 95-uy

X/R: 20208 000 104786066 001

Bank: Toshkent sh. TIF "MILLIY BANKI" AJ

MFO: 00450

INN: 207 002 342, **OKED:** 65120

“Garovga qo‘yilayotgan transport vositasini” sug‘urtalash qoidalariga 1-ilova

**“GAROVGA QO‘YILAYOTGAN TRANSPORT VOSITASINI” SUG‘URTALASH
BO‘YICHA SUG‘URTA TARIFI**

"MY-INSURANCE" AJ ST hamda “Hamkorbank” ATB o‘rtasida tuzilgan Bosh shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan “Garovga qo‘yilayotgan transport vositasini” sug‘urtalash qoidalariga muvofiq Sug‘urta qildiruvchi/Qarz oluvchi tomonidan Sug‘rtalovchiga to‘lab beriladigan sug‘urta mukofotini hisoblab chiqishda qo‘llaniladigan sug‘urta tarifi:

T/r.	Sug‘urta amal qilish davri	Shartli sug‘urta tarifi* (%)	Hisoblash davri
1.	5 (besh) yil va undan kam bo‘lganda	0,60%	yillik
2.	5 (besh) yildan ko‘p bo‘lganda	0,50%	yillik

**Sug‘urta tarifi tomonlar kelishuviga ko‘ra ko‘paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin*

Q-kod
Sugurtalash koidalar
bilan tanishish

"MY-INSURANCE" AJ ST
Boshqaruv raisi/Bosh direktori
_____ga
Qarz oluvchi / Sug'urta qildiruvchi
_____dan

**"GAROVGA QO'YILAYOTGAN TRANSPORT VOSITASINI SUG'URTALASH QOIDALARIDA
BELGILANGAN SHARTLARDA SUG'URTA (POLISI)NI TUZISH UCHUN
ARIZA – SO'ROVNOMA**

Ushbu Ariza-so'rovnoma bilan Sizdan quyidagi ma'lumotlar asosida sug'urta shartnomasini/polisini tuzishingizni so'rayman.

1.	Qarz oluvchi / Sug'urta qildiruvchi	_____ FIO _____
2.	Qarz oluvchining familiyasi, Ismi va Otasining ismi: Pasport ma'lumotlari: Mobil telefon raqami: Yashash manlisi:	_____ _____ _____ _____
3.	Kredit shartnomasi:	20__ yil "___" _____dagi _____-sonli shartnoma
4.	Kredit summasi:	_____ sum (raqamlar bilan va yozma ravishda)
5.	Kredit muddati:	20__ yil "___" _____dan 20__ yil "___" _____gacha
6.	Kredit maqsadi:	
7.	Garovga qo'yilayotgan TV Davlat raqam belgisi	
8.	Garovga qo'yilayotgan TV Texpasport ma'lumotlari	
9.	Sug'urta shartnomasi/polisining amal qilish muddati:	20__ yil "___" _____dan 20__ yil "___" _____gacha oxirgi kuni kirgan xolda
10.	Garovga qo'yilayotgan TV bozor qiymati:	_____ sum (raqamlar bilan va yozma ravishda)
11.	Sug'urta mukofoti miqdori	_____ sum (raqamlar bilan va yozma ravishda)

Ushbu Ariza-So'rovnomada ko'rsatilgan barcha ma'lumotlar haqqoniyligi va ishonchliligi tasdiqlayman.

Ushbu Ariza-So'rovnomani imzolar ekanman, "MY-INSURANCE" AJ ST tomonidan tasdiqlangan "Garovga qo'yilayotgan transport vositasini" sug'urtalash qoidalarini (keyinchalik matnda – Sug'urtalash qoidalar deb yuritiladi) bilan tanishganimni, Sug'urtalash qoidalarini qog'ozda menga taqdim qilinganligini, u bilan to'liq tanishganimni tasdiqlayman. Shuningdek ushbu Sug'urtalash qoidalarining elektron nusxasini olish imkoniyatim borligini menga tushuntirildi. Ushbu Sug'urtalash qoidalarini shartlariga o'z roziligimni bildiraman va tasdiqlayman.

(Qarz oluvchining Familiyasi, Ismi va Otasining ismi)

(imzo)

(sana)

SUG'URTA QOIDALARINING DEKLARATSIYASI

1.	Sug'urtalovchi:	"MY-INSURANCE" AJ ST
2.	Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi:	
3.	Naf oluvchi:	"Hamkorbank" ATB Mintaqaviy/Universal BXO
4.	Garovga qo'yuvchi:	
5.	Sug'urta obyektini (TV) to'liq tavsifi:	
6.	Sug'urta qoidolari (bosh shartnoma sana, nomeri):	
7.	Sug'urta muddati:	
8.	Kredit shartnomasi:	
9.	Sug'urta summasi:	
10.	Sug'urta qiymati (baxolash dalolatnomasidagi):	
11.	Sug'urta mukofoti:	

Sug'urtalangan transport vositalarining ro'yxati 1 (bittadan) ortiqni tashkil etgan taqdirda quyidagi jadval to'ldiriladi:

SUG'URTALANGAN TRANSPORT VOSITALARINING RO'YXATI

№	Transport vositalarini nomi	Sug'urta qiymati, (valyutasi)	Sug'urta puli, (valyutasi)
1	2	3	4

TOMONLARNING IMZOLARI:

**Sug'urta qildiruvchi
nomidan/Qarz oluvchi**

imzo/m.o'

**Garovga
qo'yuvchi nomidan**

imzo/m.o'

**“GAROVGA QO‘YILAYOTGAN TRANSPORT VOSITASINI SUG‘URTA QILISH”
POL_SERY POL_NUM-SONLI ELEKTRON POLISI**

"MY-INSURANCE" AJ ST hamda "Hamkorbank" ATB o'rtasida tuzilgan Bosh shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan "Garovga qo'yilayotgan transport vositasini" sug'urtalash qoidalariga (bundan buyon matnda – Sug'urta qoidalar deb yuritiladi) muvofiq quyidagilarga sug'urta himoyasini taqdim etayotganini tasdiqlaydi:

1	Sug'urta mahsulotining nomi	Garovga qo'yilayotgan transport vositasini sug'urtalash 2025 yil ____ - may kungi ____-sonli Bosh shartnomaga asosan	
2	Sug'urtalovchi	"MY-INSURANCE" AJ ST	
3	Sug'urta qildiruvchi	Qarz oluvchi nomi	
4	Sug'urtalangan shaxs	Qarz oluvchi nomi	
5	Naf oluvchi	"Hamkorbank" ATB Mintaqaviy/Universal BXO	
6	Sug'urta obykti	TVning nomi, Davlat rakam belgisi, Texpasport yeriysi va nomeri yozilad	
7	Sug'urta shakli	Ixtiyoriy	
8	Sug'urta klassi	3 klass - Yer-usti transport vositalarini sug'urta qilish	
9	Sug'urta tavakkalchiliklari	Sugurta shartnomasida kursatilgan sugurta xodisalarini yoziladi yoki Sugurta shartnomasida kursatilgan sugurta xodisalarining bandlari ko'rsatiladi	
10	Sug'urta qiymati	Summa yoziladi	
11	Sug'urta summasi	Summa yoziladi	
12	Franshiza	0	
13	Sug'urta mukofoti	Summa yoziladi	
14	Sug'urta polisining amal qilish muddati	kun-oy-yil	kun-oy-yil
15	Sug'urta himoyasiga olingan hudud	O'zbekiston Respublikasi va undan tashqari	
16	Sug'urta qoidalar	Sug'urta kompaniyasining mazkur sug'urtalash qoidalar joylashtirilgan veb-saytining manzili yoziladi	
17	Sug'urta tashkilotining manzili		
18	Alohida qaydlar		

"MY-INSURANCE" AJ ST ning sug'urta tovonini to'lash bo'yicha majburiyatlari sug'urta mukofotini yoki uning qismini o'z vaqtida to'lash sharti bilan DOG_BEG_UZ yildan boshlab kuchga kiradi va DOG_END_UZ yilgacha amal qiladi.

Sug'urtalovchi nomidan:

OWN_BANK

POL_QR_CHECK

OWN_DIREKTOR

Ushbu sug'urta shartnoma(polis)si rasmiylashtirish uchun ariza bergunimga qadar "Garovga qo'yilayotgan transport vositasini" sug'urta qoidalariga menga taqdim etildi. Men ushbu Sug'urta qoidalar bilan to'liq tanishib chiqdim va "Garovga qo'yilayotgan transport vositasini" sug'urta qoidalaridagi shartlar menga to'liq to'g'ri keladi. Kelgusida mazkur qoidalar yuzasidan huquqlar, majburiyatlar tartibga solinishiga roziman va xech qanday e'tirozim yo'q. Qarz oluvchi / Sug'urta qildiruvchi

(FIO va imzo agar yuridik shaxs bo'lsa korxona nomi va vakolatli shaxs imzosi, muxri)

Polis berilgan sana: POL_VIDAN yil.